

O‘ZBEK TILIDAGI ILK LEKSIKOGRAFIK MANBALARGA O‘QUV LUG‘ATI NUQTAI NAZARIDAN YONDASHUVNING YUZAGA KELISHI

N.I.G‘aybullayeva

Buxoro Davlat Universiteti f.f.f.d.(PhD);

Hasanova Sayyora Fazliddin qizi

Buxoro davlat universitetining Pedagogika

instituti II kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ilk leksikografik manbalarga o‘quv lug‘ati nuqtai nazaridan yondashuvning yuzaga kelishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, leksikograf, lingvogeograf, *tillar va madaniyatlararo aloqa, lug‘atshunoslik.*

Mahmud Koshg‘ariyning turkiyshunoslik, xususan, o‘zbek tilshunosligi tarixini boshlab bergan “**Devonu lug‘atit turk**” asari davrning aynan shu talablarini qondirish maqsadida dunyoga keldi.

Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad XI asrda yashab o‘tgan buyuk Sharq mutafakkiri, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, turkologiya fani, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi, leksikograf, lingvogeograf, boy merosi bilan jahon fani taraqqiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan qomusiy olimdir.

Fan, madaniyat, adabiyotning keskin taraqqiy etishi, xalifalik tasarrufidagi va boshqa mamlakatlar, qolaversa, turkiy qabilalar o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlarning chuqurlashuvi *tillar va madaniyatlararo aloqani ta’minlaydigan* turli izohli, tarjima, shuningdek, me’yoriy lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyojni kundan-kunga oshira bordi.

Manbalarda keltirilishicha, XI asrda turkiy qabilalar orasidagi munosabat ancha chuqurlashadi. Turkiy tilli qabila va urug‘larning birlashuvidan tashkil topgan qoraxoniylar davlatida adabiy til an’anasiga munosabat kuchayadi. SHu davrgacha O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, turkiy xalqlar adabiy tili masalasini forsiy til bajarib kelgan bo‘lib, bu an’ana qoraxoniylar siyosati manfaatlariga zid edi. SHu bois qoraxoniylar davlati hukmdorlari turkiy til maqomini oshirish, uning ravnaqi uchun xizmat qilishi mumkin bo‘lgan har qanday asarni ma’qullar va taqdirlar edi.

M.Koshg‘ariy o‘z asarini davr mafkurasi talablariga muvofiq yozadi. Muallif muqaddimasidayoq an’anaviy Tangriga hamd, Muhammad (s.a.v.)ga salovotdan so‘ng: “Alloh taolo saltanat quyoshini turklar burjiga ko‘tardi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni turk deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlini (ng ixtiyor jilovini) shular

qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, ularni to‘g‘ri yo‘lga yurishga qodir etdi” – deya o‘z maqsadini aytib qo‘ya qoladi. Asarning beshinchi bo‘limida qoraxoniylar davridagi davlat tili xoqoniylar tili (adabiy til) bo‘lganligi, uning o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarini yoritish, me‘yorlarini belgilash “Devon” tuzish uchun asos bo‘lganligini qayd qiladi.

M.Qoshg‘ariy turkiy tilning boshqa tillardan qolishmaydigan jozibasini nozik tarzda ochib berdi, uning mavqei, maqomini ko‘tarish masalasida bor mahoratini ko‘rsatdi. Bu davrda uni “arab tili bilan ikki uloqchi otdek teng poyga qilib **o‘zib borayotgan**” (ta’kid bizniki – B.B.) til ekanini aytish, uni **o‘rganishni vojib amalga** kiritish, albatta, muallifdan katta jasoratni talab qilardi.

Koshg‘ariy o‘z qarorlarining to‘g‘riligini isbotlash uchun: “Ishonchi bir buxorolik olimdan va yana nishopurlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday bir xabar eshitgan edimki, ular bu so‘zni payg‘ambar (s.a.v.)ga nisbat berib aytgan edilar: ... “turk til (lison)ini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi. Hadisning sahih yoki sahih emasligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to‘g‘ri bo‘lsa, turk tilini o‘rganish vojib (zarur)dir” – degan dalilni keltiradi va o‘z fikrini davom etirib bu masalada qat’iy xulosa qiladi: “hadis to‘g‘ri bo‘lmagan taqdirda ham, uni o‘rganish zarurligini aql taqozo qiladi”.

Muallif o‘zi aytganidek, bu asari bilan turkiy tilga “adabiy yodgorlik” o‘rnatadi.

Asar muqaddima va lug‘at qismidan iborat bo‘lib, muqaddimada muallif “Devon”ning yaratilish sabablari, o‘z ish uslubi, qurilishi, “turkcha so‘zlarning tuzilishida qo‘llaniladigan harflar haqida”, “so‘zlarning tuzilishi haqida”, “kitobda aytilgan va aytilmagan narsalar haqida”, “turk tabaqalari va qabilalarining bayoni haqida”, “turk tilining xususiyatlari haqida”, “tilda va lahjalarda bo‘lgan farqlar haqida” fikr yuritadi.

Asosiy qismda to‘qqiz mingga yaqin so‘z va birikma sakkiz bo‘limda izohlanadi. O‘sha davrdagi taomilga ko‘ra, turkiy so‘zlarga arabcha izoh beriladi.

Turkiy xalqlar tarixidagi eng salmoqli va bebaho asarni boshlashdan avval olim ilmiy markaz hisoblangan Bag‘dodda ta’lim olib, arab filologiyasini o‘rganadi, Xalil al-Farohidiydan tortib Ismoil-al-Javhariyigacha bo‘lgan olimlarning leksikografik tajribalari bilan tanishadi, shu an‘analardan asosida o‘z ona tilisini chuqur tadqiq qiladi. Buning uchun, o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, “Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg‘onistonga qadar cho‘zilgan” turkiy o‘lkalarni uzoq yillar mobaynida kezib chiqadi, u erlarda yashagan turkiy xalqlar hayoti, etnografiyasi va shu bilan bog‘liq ravishda tilini o‘rganadi, har bir qabila tiliga xos bo‘lgan dialektal xususiyatlarni aniqlaydi, ularni adabiy til bilan chog‘ishtiradi, o‘z ishi uchun nihoyatda boy manba to‘playdi. Muallif arab tilshunoslari yaratgan an‘analardan unumli foydalangan va turkiy til qonuniyatlarini birinchi navbatda inobatgan holda “Devonu lug‘otit turk”ga tartib beradi.

Bu haqda asar muqaddimasida: “Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, ularning eng go‘zal so‘zlari va hikmatlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo‘lmasa, men tilda ularning eng etuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirqiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”.

Ushbu lug‘at dastlabki ikki tilli – turkcha-arabcha izohli lug‘at bo‘lib, uning yaratilishiga ham aslida aksariyat antik lug‘atlar kabi davrning etakchi tili, musulmon olamining asosiy rasmiy tili bo‘lgan arab tilini o‘rgatish ehtiyoji sabab bo‘lgan. “Devon”da 2717 turkiy so‘z arab tilida izohlab berilgan.

To‘g‘ri, antik lug‘at-darsliklar kabi “Devonu lug‘otit turk”ning ta‘limning biror bosqichi uchun mo‘ljallangani, islom dinining muqaddas kitobi “Qur‘oni karim”ga oid tushunchalar izohiga bag‘ishlangani, madrasa yoki maktablarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quv qo‘llanma vazifasini bajargani xususida ma‘lumotlar uchramaydi, biroq uning foydalanuvchisi (adresat) aniq: lug‘at turk tilini bilmaydigan arablar va arab tilini bilmaydigan turklar uchun yozilgan. Asosida til o‘rgatish maqsadi yotgan. Faqat so‘zlar va ularning ma‘nolarini tavsiflab qolmasdan grammatik ma‘lumotlar ham berilgan. Ayrim o‘rinlarda izohlarda keltirilgan fikrlarni asoslash uchun xalq og‘zaki ijodi namunalaridan parchalar keltirilgan. Masalan:

jashdi – yashirindi. *Ol meni köryb jashdi* – u meni ko‘rib yashirindi.

Maqolda shunday kelgan: *Tewäj mÿnyb qoj ara jashmas*. Tuya mingan odam qo‘ylar orasida yashirinmaydi.

jÿshdi – oqizdi. *Ol bekni jÿshdi* – u bo‘zani qumg‘on jo‘mragidan oqizdi. Bo‘za bug‘doy, arpa, tariqdan qilingan ichimlikdir.

jag‘di – yog‘di. *Jag‘mur jag‘di*.

Maqolda shunday kelgan: *Qutlug‘qa qosha jag‘ar* Baxtli odamga davlat qo‘sha-qo‘sha keladi.

Lug‘atda tushunchalar muhimlik darajasiga qarab qat‘iy ketma-ketlikda joylashtirilgan. Masalan, dastlab jannat va xudolarni anglatuvchi sinonimlar ro‘yxati keltiriladi, keyin ikkinchi darajali tushunchalarni bildiruvchi leksik va semantik guruhlar ma‘lum tartibda berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus- T.:2019-yil 19-mart.
2. H.A.Hayitov. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish metodikasi fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. Buxoro 2022.
3. Matchonov S. Adabiy ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy estetik tafakkur muammolari. Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotlar. 2020
4. Abduraximov M.M. Uzbekskaaya yazykovaya aforistika kak ob'ekt sistemy uchebnykh dvuyazychnykh slovaryey (na materiale uzbekskogo i russkogo yazykov): Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – Tashkent, 1982. – 17 s.
5. Aleksandrov P.S. Printsipy sostavleniya slovarya sinonimov russkogo literaturnogo yazyka: Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – L., 1963. – 23 s.
6. Bazarov O. Graduonimiya v uzbekskom yazyke: Avtoref. diss. dokt. filol. nauk. – Tashkent, 1997. – 52 s.
7. Balzamor V.A. Printsipy postroeniya slovarnoy stati s angliyskim zaglavnyim slovom v slovare dlya shkolnikov: Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – Tver, 2006. – 18 s.